

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SAMINJONOVA SHAXNOZAXON NUMANOVNA

**TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY SOHALARI DOIRASIDA TIL
KOGNITIV BIRLIKLARINI ANIQLASH TIZIMI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) on Philological
sciences**

Saminjonova Shaxnozaxon Numanovna

Tilshunoslikning zamonaviy sohalari doirasida tilning kognitiv birliklarini aniqlash tizimi..... 3

Саминжонова Шахнозахон Нумановна

Система идентификации когнитивных единиц языка в рамках современных направлений лингвистики.....27

Saminjonova Shaxnozakhon Numanovna

The system of identifying cognitive units of the language within the framework of modern directions of linguistics.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SAMINJONOVA SHAXNOZAXON NUMANOVNA

**TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY SOHALARI DOIRASIDA TIL
KOGNITIV BIRLIKLARINI ANIQLASH TIZIMI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2347 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Muhiddinov Anvar G'ofurovich filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Sultonova Shoxista Muhammadjonovna filologiya fanlari doktori, dotsent Teshaboyeva Dilfuza Mo'minovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « 24 » aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105 uy. Tel.: (+99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (497 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105 uy. Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 2 » aprel da tarqatildi.

2025 yil « 2 » aprel dagi 23 raqamli reyestr buyonnomasi.



S.M.Muminov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, f.f.d., professor.

M.T.Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.n., professor.

G.Z.Rozikova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
f.f.d., professor.

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon ilm-fanida kognitiv tilshunoslikning barcha sohalarini o‘rganish, uni chuqur tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Zamonaviy tilshunoslikning eng muhim yutuqlaridan biri tilni “o‘z-o‘zidan” tizim sifatida emas, balki insonning bilish faoliyatidagi ishtiroki nuqtai nazaridan yangi paradigmda ko‘rib chiqishdir. Natijada til xalqning ma‘naviy boyligiga aylanib, axborot uzatishning butun mexanizmini o‘z ichiga olgan muloqot vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, til mexanizmini tahlil qilishda biz ma‘lum darajada nafaqat tilni tarkibiy qism sifatida bilishni, balki dunyoni anglash, ijtimoiy kontekst, nutqiy muloqot tamoyillari, muloqot qilinayotgan shaxs, asosiy bilimlar va boshqalarni ham hisobga olishimiz lozim. Ushbu bilimlarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish kerak, zero faqat shundagina biz “lisoniy” tushunchasining mohiyatini anglashga yaqinlasha olamiz.

Jahon tilshunosligida kognitiv tilshunoslik til va tafakkur orasidagi o‘zaro aloqani chuqur tushunishni ta‘minlashi bois muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv tilshunoslik doirasidagi izlanishlar tufayli idrok, turkumlash va tushunchalashtirish kabi bilish jarayonlarida aks etgan va shakllangan til tuzilmalari aniqlanmoqda. Bunday tadqiqotlarning ahamiyati shundaki, ular inson muloqotining yanada yaxlit manzarasini yaratish uchun psixologiya, neyrofanlar, antropologiya kabi turli sohalardan olingan ma‘lumotlarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ushbu izlanishlar nafaqat tilshunoslikning nazariy doirasini kengaytiradi, balki sun‘iy intellekt, ta‘lim va madaniyatlararo muloqot sohalarida bilimlarni amalda qo‘llashga ko‘maklashadi, shu tariqa zamonaviy til ilmini boyitadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatlarini yanada chuqur o‘rganishga e‘tibor kuchaydi. Bugungi kunda tilshunoslikning diqqat markazida nafaqat tilning o‘zi, balki uni o‘rab turgan olamni bilish, undan olingan axborotni qayta ishlash yo‘llari va usullarini namoyish etuvchi til ham turadi. Shuning uchun barcha til hodisalari va jarayonlari voqelikni bilishga yo‘l ochadi va odamlarning dunyo haqidagi bilimlarini aks ettiradi. Ta‘kidlanishicha, “farovonlikning kaliti ta‘lim, tarbiya, bilimdadir. Zero, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya orqali erishiladi”¹. Ushbu vazifani ko‘rib chiqishda zamonaviy jamiyatda til va lingvistik ta‘limning o‘rnini aniqlash, shuningdek, til va madaniyatni o‘rganish paradigmlarini, shu jumladan tabiiy til va axborot texnologiyalari tillarining kognitiv birliklarini aniqlash kerak. Dunyo tilshunosligida kognitiv fan alohida yo‘nalish sifatida ajratilayotgani, kognitiv tilshunoslik va tilning kognitiv birliklari media makonda va axborot texnologiyalari sohasida yetarlicha tadqiq etilmaganligi, ilmiy-innovatsion diskurs matnlarining katta korpusini qisqa vaqt ichida tahlil qilishga imkon beradigan, interpretatsiya vositasi bo‘la oladigan kognitiv modellarning lingvistik majmuasini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 20.12.2022.

ishlab chiqishga bo'lgan amaliy ehtiyoj dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda fan va ta'lim sohasida qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining bugungi kundagi ustuvor yo'nalishi doirasida olib borildi. "Axborot jamiyati va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalarni shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari".

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kognitiv tilshunoslikning ildizlari N.Xomskiy, Ch.Fillmor, R.Fokone, K.Langaker, L.Talmi va boshqa olimlar²ning bir qator tadqiqotlarida yoritilgan.

Xususan N.Alefirenko, B.A.Serebrennikov, Y.S.Kubryakova kabi xorijlik mualliflarning ishlari kognitiv tilshunoslik muammolari va tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida til kognitiv birliklarini o'rganishga bag'ishlangan. Taniqli xorijiy olimlar V.N.Teliya, N.D.Arutyunova, Y.S.Kubryakova, Y.S.Stepanova va boshqalarning asarlarida kognitiv masalaning turli jihatlarini, jumladan, tushunchalar apparati bilan bog'liq masalalar tadqiq etilgan.

Tadqiqot doirasida MDH olimlaridan N.D.Arutyunova, A.P.Babushkin, D.S.Lixachyov, Y.D.Apresyan, A.N.Baranov, N.N.Boldirev va boshqalar³ tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv tilshunoslikning ilmiy-nazariy asoslari o'rganildi. Bundan tashqari, biz rus olimlari L.M.Vasilyeva, V.V.Vorobyov, A.A.Zalevskaya, V.A.Zveginsev, A.A.Kibrik, N.A.Kobrinlar⁴ning zamonaviy

² Хомский Н. Язык и мышление. – М.: Изд-во Московского университета, 1972; Fauconnier G., Turner M. The Origin of Language as a Product of the Evolution of Modern Cognition // Origin and evolution of languages: approaches, models, paradigms / B. Laks (ed.). L., 2008; Langacker R. W. Assessing the cognitive linguistic enterprise // Th. Janssen, G. Redeker (eds). Cognitive Linguistics: Foundations, Scope and Methodology. – Berlin – New York: Mouton de Gruyter, 1999.

³ Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988; Бабушкин А.П. "Возможные миры" в семантическом пространстве языка. – Воронеж: Воронеж гос. университет, 2001; Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Известия РАН СЛЯ. Т.52. 1993. – № 1. – С.3-9; Апресян Ю.Д. Дистрибутивный анализ значения и структурные семантические поля // Лексикографический сборник. – М., 1962. – вып.5. – С. 52-72; Апресян Ю.Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания // Вопросы языкознания. 1995 (в). – № 1. – С.37-67; Баранов А.Н., Добровольский Д.О. Постулаты когнитивной лингвистики // Изв. РАН – СЛЯ, 1997. – № 1. – С.11-21; Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. – № 1. – С.18-36.

⁴ Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика в свете когнитивной теории языка // Germanica. Slavica. Turcica: Сборник научных статей. К 60-летию Р.З. Мурясова / Издание Башкирского университета. –

когнитив мажмуанинг elementi sifatida til haqidagi fundamental asarlarini ham o‘rgandik.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatlarini yanada chuqurroq o‘rganishga e‘tibor kuchaydi. Ta‘kidlash joizki, kognitiv tilshunoslik muammolarini tadqiq etish o‘zbek tilshunos olimlaridan Sh.Safarov, D.U.Ashurova, A.A.Abduazizov, M.X.Hakimov, A.G‘.Muxiddinov, Z.Akbarova va boshqalar⁵ning diqqat markazida bo‘ldi. Kompyuter lingvistikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminlarini tadqiq etish muammolariga D.X.Qodirbekova, N.S.Nasrulloeva kabi ko‘plab olimlarning ishlari bag‘ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Farg‘ona davlat universiteti “Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari doirasida, ayniqsa kompyuter lingvistikasi va kognitiv tilshunoslikda til birliklarini aniqlash tizimini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqotning ko‘zlangan maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

axborot texnologiyalarida til birliklarini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish va tavsiflash;

axborot texnologiyalari tizimida birliklarni tadqiq etishning zamonaviy yondashuvlarini aniqlash;

tushunchalar, freymlar va blendlarni har tomonlama o‘rganish;

axborot texnologiyalari tili birliklarini aniqlashga nisbatan kognitiv-diskursiv yondashuvning nazariy asoslarini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti tafakkur va til o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti kognitiv tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi doirasida til birliklarini aniqlash jarayonini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tavsiflash usuli, statistik usul, til materialining kontent tahlili, kognitiv modellashtirish usuli sifatida freym tahlil

Уфа, 2000. – С.248-252; Воробьев В.В. О статусе лингвокультурологии // Материалы IX Конгресса МАПРЯЛ (Братислава 1999): Доклады и сообщения российских ученых. – М., 1999. – С. 96-117; Залевская А.А. Когнитивный подход к слову и тексту // Языковое сознание: содержание и функционирование. XIII международный симпозиум по психолингвистике и теории коммуникации. – М., 2000. – С.91; Звегинцев В.А. Теоретико-лингвистические предпосылки гипотезы Сепира-Уорфа // Новое в лингвистике. Выпуск 1 / Составление, редакция и вступительные статьи В.А.Звегинцева. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960. – С. 111-134; Кибрик А.А. Когнитивные исследования по дискурсу // Вопросы языкознания, 1994. – № 5. – С.126-139; Кобрина Н.А. Когнитивная лингвистика: истоки становления и перспективы развития // Когнитивная семантика. – Ч.2. – Тамбов, 2000. – С.170-175.

⁵ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.; Ashurova D.U. Cognitive Stylistics: views, approaches, perspectives // Stylistics in the light of modern linguistic trends. Papers of scientific practical conference. – Tashkent, 2011. – P.11-14; Абдуазизов А.А. О соотношении когнитивной семантики и стилистики // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011; Абдуазизов А.А. О составных частях когнитивной лингвистики // Хорижий филология. – Самарканд: 2007. – №3. – С.5-6; Ҳакимов М.Ҳ. Прагмалингвистика асослари. – Фарғона: “Фарғона” нашриёти, 2020; Мухиддинов А.Г. Англо-русский словарь фреймов. – М.: De’Libri.

usuli, tabiiy til tizimi va axborot texnologiyalari tilini modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tabiiy til va axborot texnologiyalari tillari birliklariga xos yuqori darajadagi mavhumlik va ko‘p ma‘nolilik xususiyatlari asoslab berilgan;

raqamli davrda til, tafakkur va texnologiyalarning o‘zaro ta‘sirini yanada chuqurroq anglash imkonini beruvchi axborot texnologiyalari sohasidagi til birliklari va terminologiyasini o‘rganishga zamonaviy yondashuvlar aniqlangan;

axborot texnologiyalari sohasida “аффтар”, “лол”, “прогуглка”, “рунет”, “селфи-палка”, “выкатили новую версию сайта”, “меншить”, “дропнуть”, “откатить”, “убить”, “чекать” kabi so‘zlar va boshqa obyektiv voqelikni aks ettiruvchi freym tasavvurlari hamda blendlar tavsiflangan;

tabiiy til va axborot texnologiyalari tilini o‘rganishda kognitiv-diskursiv yondashuvning aks etishi isbotlangan (“R2P – request to payment – to‘lov so‘rovlari”, “R2P – research to practice – Tadqiqotdan amaliyotga”, “R2P – responsibility to protect – Himoya qilish mas‘uliyati”, “R2P – right to protect – Himoya qilish huquqi”, “WUZZUPG2TUSMTHLMKWH5 WBASAP”, “404 TTYLG2G”). Bular nafaqat til aloqalari hodisalarini aks ettiradi, balki ularni chuqur tahlil qilish uchun vositalar ham taqdim etadi, bu esa mazkur hodisalarga yangicha nazar tashlash imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tilning kognitiv birliklarining axborot texnologiyalari tilida amal qilishi tahlil qilingan;

tadqiqot materiallari tilshunoslikning kognitiv tilshunoslik, stilistika, nutq madaniyati, matn lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi, sotsiolingvistika, psixolingvistika kabi zamonaviy yo‘nalishlari taraqqiyotini aynan aks ettiradi, degan xulosaga kelingan;

oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat va magistratura ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv rejalari, o‘quv-uslubiy majmualar va o‘quv adabiyotlarini to‘ldirish va takomillashtirish mumkinligi asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilishi, tilning kognitiv birliklarini turli tadqiqot manbalari, jumladan, davriy nashrlar asosida taqqoslanishi, o‘rganilayotgan muammoga ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan yondashilishi, tadqiqot mazmunining ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar hamda xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalardagi ma‘ruzalarda yoritilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, u zamonaviy tilshunoslikning kognitiv paradigmasiga kiruvchi birliklarning ilmiy izohini shakllantirish va aniqlashtirish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, zamonaviy tilshunoslikning kognitiv lingvistika sohasidagi ilmiy asoslarini mustahkamlash uchun nazariy g‘oyalarni taqdim etishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalardan oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv jarayonida tegishli fanlar bo‘yicha ma‘ruza va

seminar mashg'ulotlarini olib borishda, ta'lim standartlariga muvofiq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, darslik va o'quv qo'llanmalar, leksikografik adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot ishlarini yozishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:

tabiiy til va axborot texnologiyalari tillarining birliklariga xos yuqori darajadagi mavhumlik va ko'p ma'nolilik xususiyatlariga oid xulosa, tavsiya va natijalar Farg'ona davlat universitetining "Profilingvo" markazida o'zbek tilidan rus tiliga, rus tilidan o'zbek tiliga dissertatsiya, avtoreferat va maqolalarni tarjima qilishda qo'llanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2024-yil 17-oktyabrdagi 04/5954-son ma'lumotnomasi), natijada dissertatsiya, avtoreferat va maqolalarni tarjima qilish samaradorligi oshgan;

raqamli davrda til, tafakkur va texnologiyalarining o'zaro ta'sirini yanada chuqurroq anglash imkonini beruvchi axborot texnologiyalari sohasidagi til birliklari, zamonaviy tilshunoslikning kognitiv xususiyatlarini aks ettiruvchi "konsept", "freym", "blend", "script" atamalarini talqin qilish masalasiga turli yondashuvlar tahliliga oid xulosa, tavsiya va natijalar: etnomadaniy va madaniyatlararo munosabatlarni shakllantiruvchi vositalar sifatida taqdim etilgan til belgisi (lingvomadaniy yo'nalish) va mentalitet (kognitiv yo'nalish) ma'nosi orqali Qozon federal universiteti talabalari va magistrantlari uchun o'quv jarayonida foydalanilgan (Qozon federal universitetining 2022-yil 20-dekabrdagi 0.1.2101.01-09/377-son ma'lumotnomasi). Natijada mashg'ulotlarning ilmiy saviyasi hamda kognitiv tilshunoslik yo'nalishidagi talabalar va magistrantlar bilimlarining ilmiy-nazariy salohiyati oshgan;

axborot texnologiyalari sohasida "аффтар", "лoл", "прогуглка", "рунет", "селфи-палка", "выкатили новую версию сайта", "меншить", "дропнуть", "откатить", "убить", "чекать" kabi so'zlar va boshqa obyektiv voqelikni tadqiq etishga zamonaviy yondashuvlar talqiniga oid tadqiqot xulosa va natijalari O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasida 2022-2023-yillarda amalga oshirilgan "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib qilishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to'plamini (elektron lug'atlar) yaratish" mavzusidagi F3-2019081663-sonli fundamental loyihani bajarishda qo'llanilgan (O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 10-sentabrdagi 1/04-122-son ma'lumotnomasi);

tabiiy til va axborot texnologiyalari tilini o'rganishda kognitiv-diskursiv yondashuvning aks etishi ("R2P – request to payment – to'lov so'rovlari", "R2P – research to practice – Tadqiqotdan amaliyotga", "R2P – responsibility to protect – Himoya qilish mas'uliyati", "R2P – right to protect – Himoya qilish huquqi", "WUZZUPG2TUSMTHLMKWH5 WBASAP", "404 TTYLG2G"); tadqiqotning ilmiy hamjamiyatda qabul qilingan "kognitiv lingvistika", "lingvomadaniy birliklar", "konsept", "freym", "blend", "gestalt", "konstanta", "til – tafakkur – inson" triadasining o'zaro bog'liqligi, mazmuniy-struktur zanjirning ilmiy-nazariy asoslariga oid xulosalardan Farg'ona viloyati "Ruxsor" teleradiokanalining "Oltin O'zbekiston" ko'rsatuvi doirasida foydalanilgan (Farg'ona viloyati "Ruxsor"

teleradiokanalining 2022-yil 30-iyundagi 111-son ma'lumotnomasi). Natijada dastur mazmuni boyitilgan, tinglovchilarning qiziqishi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish e'lon qilingan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining ro'yxatiga kiritilgan nashrlarda, 3 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy etilishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar soni va dissertatsiyaning tuzilishi asoslangan.

Dissertatsiyaning "**Kognitiv tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi til birliklarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida umumnazariy metodologiya darajasida ilmiy identifikatsiyani talab qiladigan muammolar ko'rib chiqilgan. Tanlangan metodologiya nuqtayi nazaridan "tafakkur" va "til" tushunchalarini ilmiy identifikatsiyalashning konseptual asoslari, zamonaviy lingvistik ta'limotlarda tabiiy til paradigmasining tabiiy, mental-psixologik va ijtimoiy-madaniy borliq shakllari bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Tilshunoslikda "til – tafakkur" dixotomiyasini ilmiy identifikatsiyalash shart-sharoitlarining kelib chiqishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlari o'rganildi. Ushbu masalani ko'rib chiqishda turli lingvistik an'analar doirasida kognitiv mexanizmlarni aniqlashga qaratilgan tasavvurlarning tizimli o'zgarishiga e'tibor qaratildi.

Dissertatsiyaning "**Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yo'nalishi sifatida**" deb nomlangan birinchi paragrafida kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi va uning hozirgi bosqichdagi shakllanishi yoritilgan.

Tilshunoslikning rivojlanishi ilmiy paradigmalarning dinamik o'zgarishi natijasida yuz beradi. Lingvistik tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarda "ilmiy paradigma" birikmasining qo'llanilishi ilmiylikning belgisiga aylandi. Tilshunoslikda til hodisalarini o'rganish usullari, nazariyalari va ilmiy yondashuvlari ilmiy paradigma deb yuritiladi. "Ilmiy paradigma" tushunchasining

paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi Tomas Kun nomi bilan bog‘liq. U paradigmani ilmiy jamiyat a‘zolarining tarixan shakllangan nazariyalari va e‘tiqodlari majmui sifatida ta‘riflagan. Olim ilmiy tadqiqotlar “ma‘lum vaqt davomida ilmiy hamjamiyatga muammo va yechimlarni qo‘yish modelini beradigan, barcha tomonidan e‘tirof etilgan ilmiy yutuqlar” paradigmasi doirasida amalga oshiriladi, degan fikrni birinchi bo‘lib ilgari surgan.

Bugungi kunda ilmiy bilimning uchta paradigmasi mavjud:

- qiyosiy-tarixiy
- tizimli-tarkibiy
- kognitiv (antropotsentrik)⁶:

Qiyosiy-tarixiy paradigma so‘zni bilish obyektini sifatida ko‘radi. Kognitiv ilmiy paradigma esa “til inson ijodi bo‘lib, uni yaratuvchisi va foydalanuvchisi bilan bog‘liq bo‘lmagan holda tushunib bo‘lmashligini va tushuntirib bo‘lmashligini”⁷ ta‘kidlaydi.

Kognitiv tilshunoslik ko‘p jihatdan zamonaviy tilshunoslikning holatini belgilaydi. Shu sababli, til hodisalarini tahlil qilishning nazariy va metodologik tamoyillarini amaliy tajriba asosida ochib beruvchi ilmiy ishlarga ehtiyoj mavjud.

Mashhur shveysariyalik psixolog J.Piaje tafakkur nutqiy harakat mexanizmlari va sensomotor mexanizmlar bilan chambarchas bog‘liq deb hisoblaydi. Tafakkurning murakkab tuzilmalari ularni to‘liq qayta ishlash uchun tildan foydalanishni talab qiladi. Shunday qilib, til tafakkur tuzilmalarini mujassamlashtiruvchi vosita vazifasini bajaradi⁸.

Kognitiv tilshunoslik insonlarning axborotni qanday qabul qilishi va qayta ishlashi, bir-biri va atrof-muhit bilan o‘zaro ta‘sir olishi haqidagi bilimlarni kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Kognitiv fan sohasidagi asosiy tushuncha – “kognitsiya” (cognition – “shaxs”) dir. Atrofdagi olamni anglash va tushunish lisoniy tafakkurni idrok etish va shakllantirish orqali amalga oshadi⁹.

G.V.Fridrix Gegel birinchi bo‘lib aql va idrokni bir-biridan farqlagan¹⁰.

Aqliy tafakkur insonning o‘z sezgi va idrokiga tayanib, tashqi dunyoni anglashga intiladigan jarayondir. Shu bilan birga, oqilona fikrlash mantiq va tahlilga asoslangan obyektiv jarayon sifatida qabul qilinadi.

Kognitiv tilshunoslik nazariyalarining xilma-xilligi tildagi bilimlarning chuqur aloqasini ko‘rsatuvchi tadqiqotlar paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi (1.1-jadval):

⁶ Кун Т. Структура научных революций // International Encyclopedia of Unified Science, 1962. – С.11.

⁷ Кравченко А.В. Язык и восприятие: Когнитивные аспекты языковой категоризации. – Иркутск: Изд-во Иркутского ун-та, 1996. – С.6.

⁸ Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. – М.: Педагогика – Пресс, 1999. – С.58.

⁹ Краткий словарь когнитивных терминов. Сост. Е.С. Кубрякова, В.З. Демьянков, Ю.Г. Панкрац, Л.Г. Лузина. – М., 1997.

¹⁰ Гегель Г.В. Феноменология духа. – М.: Наука, 2000.

Tilshunoslikning kognitiv nazariyalari

Nazariya muallifi	Nazariyalar	Misollar
R.Langaker	Rolli grammatika	U nay chalishni biladi U Grenning nayini chaladi
E.Rosh	Prototiplar nazariyasi	Yozuv stoli Pasport stoli
Dj.Lakoff	Metaforalar nazariyasi	Bulutlar samoviy sigirlarga o'xshaydi
A.Vejbitskaya	Etnomadaniy semantika nazariyasi	Reklamalardagi faktlar etnos qadriyatlarini sifatida
L.Talmi	Fazoni strukturalash nazariyasi	Axborot makoni – texnologik makon
P.B.Parshin	Freymlar nazariyasi	Odam va hayvon freymlari

Shunday qilib, kognitiv lingvistika til va tafakkurni o'rganishning yangi usullari va yondashuvlarini taklif qilib, rivojlanishda davom etmoqda, bu esa insonning bilish va muloqot tabiatini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

“**Tilning kognitiv birliklarini o'rganishning o'ziga xosligi**” deb nomlangan ikkinchi paragrafda bilimlar tizimi voqelikni anglashni aks ettiruvchi dunyoqarashni shakllantirishi va olamning o'ziga xos konseptual manzarasini yaratishi ko'rsatib berilgan. Dastlab “*konsept*” atamasi sun'iy intellekt tadqiqotlari sohasiga kiritilgan, keyinchalik kognitiv tilshunoslikda faol qo'llanila boshlagan. Hozirgi kunda kognitiv tilshunoslikda “*konsept*” atamasidan tashqari *freym*, *bilimning freymli ifodasi va skript* kabi tushunchalar keng qo'llaniladi.

Konseptlar tildagi so'zlarni kodlaydi. Konsept ko'p qirrali bo'lib, unda ratsionallik va emotsionallik, mavhumlik va konkretlik, umummilliylik va shaxsiylik mavjud. Shuning uchun konsept kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchasidir.

Konseptning invariant belgilari quyidagilardan iborat:

- maydon tuzilmasiga ega bo'lgan inson tajribasining minimal birligi;
- axborotni qayta ishlash, saqlash va uzatishning asosiy birligi;
- konsept ijtimoiy va ko'chma chegaralarga ega;
- madaniyatning asosiy yacheykasi.

Tadqiqotlarimiz tahliliga ko'ra, kognitiv tahlil usullari uzoq vaqt davomida leksik materialning asosiy vositasi sifatida keng va muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Ulardan intensiv foydalanish orqali kognitiv-diskursiv paradigmani samarali rivojlantirish taklif etildi.

Bu usul til ma'lumotlarini tashkil etish jarayonlarini batafsil tushunish va til kategoriyalarining o'ziga xos xususiyatlari va ularning ibora ma'nosining shakllanishiga ta'sirini tadqiq qilish imkonini beradi¹¹.

¹¹ Гегель Г.В. Феноменология духа. – М.: Наука, 2000.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslik turdosh fanlarning metod va vositalaridan faol foydalanadi. Bu til qobiliyatlari asosida yotuvchi miya jarayonlarini tadqiq etish imkonini beradi.

Kognitiv tilshunoslikda kompyuter modellari va sun'iy intellektning ahamiyatini ham ta'kidlash joiz. Ushbu texnologiyalar til jarayonlarining simulyatsiyalarini yaratishga imkon beradi.

Kompleks yondashuv inson ongi va uning til bilan o'zaro ta'sirini yanada to'liqroq va chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Tilshunoslikda konseptlarning funksional xususiyatlarini tadqiq etish usullari faol rivojlanmoqda. L.A.Furening konseptlarni kognitiv dominantlik usuli orqali modellashtirish tamoyillari nutqiy tafakkur dinamikasini kommunikativ maqsadlar kontekstida tadqiq etishni asoslaydi. Bu usul turli kognitiv dominantlarning nutqiy faoliyatni tashkil etish va axborotni idrok etishga qanday ta'sir qilishini o'rganish imkonini beradi.

“Axborot texnologiyalari sohasidagi tilning kognitiv birliklari tipologiyasi” deb nomlangan uchinchi paragrafda tushunchaning nazariy ta'rifi yoritilgan. Tabiiy tilning tuzilishi va qo'llanilishi muloqot ishtirokchilarining o'xshash tajriba, bilim, dunyoqarash va umumiy muloqot uslubiga ega ekanliklarini nazarda tutadi. Biroq, axborot texnologiyalari tilida ishlaydigan kompyuter bilan ma'lumot almashish uchun nutqdan foydalanish qiyinchilik tug'diradi.

Nutqni qayta ishlashdan foydalanish qurilmalar uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi, ularga nafaqat mexanik vazifalarni bajarish, balki intellektual qobiliyatlarni ham namoyon qilish imkonini berdi.

Axborot tushunarli bo'lishi uchun u mo'ljallanganlar tushunadigan tildan foydalanish kerak. Vaqt o'tishi bilan insoniyat muloqot uchun ko'plab tillarni yaratdi.

Til – bu ma'lumot almashish uchun belgilar tizimi. Kompyuter lingvistikasi matn va nutqni qayta ishlash uchun kompyuter modellarini yaratish bilan shug'ullanadi.

Noam Xomskiy tabiiy til strukturasi formallashtirishni o'rgandi, mashina tarjimasini bo'yicha tajribalar o'tkazdi va tabiiy tilni tushunish uchun birinchi sun'iy intellekt dasturlarini yaratdi.

Asosi alifbo – belgilar to'plami hisoblanadi. Til quyidagilarni o'z ichiga oladi: belgilar to'plami – til birliklari, semantik regulyatorlar, til konstruksiyalarining sintaktik qoidalari. Kelib chiqishiga ko'ra tillar tabiiy va sun'iy bo'ladi. Shakllantirilgan til shu bilan farqlanadiki, unda iboralarni yaratish va tushunish uchun aniq qoidalar mavjud va u me'yorlar, semantik talqin va sintaktik transformatsiya bilan tartibga solinadi.

Tilshunoslar uzoq vaqtdan beri va faol ravishda tushunchalar triadasini tadqiq qilishadi:

- ong voqelikni aks ettirishning oliy shakli sifatida,
- tafakkur voqelikni aks ettirish jarayoni sifatida,
- intellekt aqliy qobiliyat sifatida.

Ong hayvonlarga ham, insonga ham xosdir, ammo tafakkur va aql faqat insonga xosdir. Shu bois tilshunoslar “lisoniy ong” tushunchasidan tobora ko‘proq foydalanmoqdalar.

Lingvokognitiv tahlil tilning fikrlash jarayonlarini qanday aks ettirishi va shakllantirishi, shuningdek, mental modellar til tuzilishi va qo‘llanishiga qanday ta’sir qilishini aniqlashga yordam beradi. Bunday tadqiqotlar kognitiv fan va lingvistikani o‘rganishda yangi ufqlarni ochib, til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunishni chuqurlashtiradi.

Biz N.N.Boldirevning “tilda bilimlarni taqdim etish, asosan, til yordamida amalga oshiriladigan ikkita asosiy kognitiv jarayon – konseptualashtirish va kategoriyalashtirish natijasidir”¹² degan fikriga qo‘shilamiz.

Konseptlarni o‘zlashtirishda bilishning ikki darajasi: birinchi darajada bilim olishni va keyinchalik bu bilimlarni inson ongida konseptlar shaklida ikkinchi kategorial darajada mustahkamlashni nazarda tutadi.

Inson ongi bilish faoliyati natijalarini umumlashtirish va tasniflash kategoriyalari ko‘rinishida idrok etish jarayonini ishga tushiradi¹³. Shu munosabat bilan tilshunoslar til va undan foydalanish bilan bog‘liq bilimlar, tasavvurlar va e’tiqodlar yig‘indisini anglatuvchi “lisoniy ong” tushunchasi qo‘llanilmoqda. Bu tushuncha nafaqat tilshunoslikda, balki boshqa fanlarda ham faol qo‘llaniladi.

Inson konseptosferasini biz inson bilimi va tajribasining mental reprezentatsiyalarini aks ettiruvchi konseptlar yig‘indisi sifatida ko‘rib chiqamiz. Konseptlar aniq (masalan, “stol”) yoki mavhum (masalan, “erkinlik”) bo‘lishi mumkin va fikrlash va toifalash jarayonlarida asosiy rol o‘ynaydi. Konsept ma’lum mazmun va struktura bilan xarakterlanadi.

1.2-jadval

Konseptning konseptual mazmuni

Tilshunos mualliflar	Konsept tushunchasining mazmuni	Misollar
S.A.Askoldov-Alekseev	Konsept lisoniy ongda ko‘plab predmetlar, harakatlar va belgilarning o‘rnini egallaydi ¹⁴ .	“adolat” konsepti
D.S. Lixachev	1) "Konsept voqelik hodisalarini talqin qiladi" ¹⁵ ; 2) "Konsept so‘zlarning ma’nolaridan kelib chiqmaydi, balki	1) "stol" konsepti; 2) neftning boylik sifatidagi konsepti -

¹² Болдырев Н.Н. Актуальные задачи когнитивной лингвистики на современном этапе // Вопросы когнитивной лингвистики. 2013. №1 (34). – С.58. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-zadachi-kognitivnoy-lingvistiki-na-sovremennom-etape> (дата обращения: 05.07.2024).

¹³ Кубрякова Е.С. и др. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Филол. ф-т МГУ им. М.В. Ломоносова, 1997. – С.45.

¹⁴ Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. Под рук. проф. В.П. Нерознака. М.: Academia, 1997. – С. 276-279

¹⁵ Лихачев Д. С. Концептосфера русского языка // Очерки по философии художественного творчества. 2-е изд., доп. – СПб.: БЛИЦ, 1999. – С. 147-165.

	so'zlovchining shaxsiy hayotiy tajribasi bilan bog'liq ma'no natijasidir" ¹⁶	"qora oltin"
Y.S.Kubryakova	Konsept - xotira, lisoniy ong birligi ¹⁷ .	"olma" konsepti
Y.S.Stepanov	"Konsept tushunchaning tarixiga qisqartirilgan mavhum, aniq assotsiativ va hissiy-baholovchi belgilarni o'z ichiga oladi" ¹⁸	"qonun" konsepti
Z.D. Popova, I.A. Sternin	1) Konsept konseptning barcha kognitiv belgilarining yig'indisi sifatida; konsept deganda "diskret mental ta'lim" tushuniladi ¹⁹ ;	"kvadrat" yoki "uchburchak" konsepti
V.I.Karasik	1) inson xotirasidagi tajriba parchalari ²⁰ ; 2) insonning hayotiy tajribasi fragmenti; 3) kechinma bilimining kvanti ²¹	1) "yezd" konsepti; 2) "ta'lim" konsepti; 3) "muhabbat" konsepti
A.A.Zalevskaya	"Konsept inson ongida obyektiv mavjud bo'lgan dinamik xarakterdagi kognitiv-affektiv tuzilma sifatida" ²² .	"qayin" konsepti
M.V.Pimenova	Konsept - bu voqelik parchasining taqdimotidir ²³ .	"vaqt" konsepti

Ong tadqiqi ham kognitiv fan, ham kognitiv tilshunoslikning o'rganish predmeti hisoblanadi²⁴. Konseptdan tashqari, tilshunoslar lingvistik kognitsiyalarning asosini tashkil etuvchi kognitiv tuzilmalarga ham e'tibor qaratadilar. Kognitiv tuzilmalar axborot materialini kodlash va saqlash jarayonlari mazmunini aks ettiruvchi bo'linmas birliklardir.

Dissertatsiyaning **“Axborot texnologiyalari tilining kognitiv birliklarini o'rganishga zamonaviy yondashuvlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida zamonaviy tilshunoslikda tilning cheksiz semantik maydonini anglashda til va tafakkurning kognitiv mexanizmlarini rivojlantirish jarayonlarining ilmiy identifikatsiyasining konseptual asoslari tavsiflangan, olamning ilmiy manzarasini shakllantirishda tilning o'rni va ahamiyati haqidagi muammolar ko'rib chiqilgan.

¹⁶ Лихачев Д.С. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология // Под рук. проф. В.П. Нерознака. М.: Academia, 1997. С. 280-287

¹⁷ Кубрякова Е.С. О ментальном лексиконе: лексикон как компонент языковой способности человека // Актуальные проблемы современной лингвистики / сост. Л.Н. Чурилина. – М.: Флинта: Наука, 2006.

¹⁸ Степанов Ю.С. Концепты. Тонкая пленка цивилизации. – М.: Языки славянских культур, 2007.

¹⁹ Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: ВостокЗапад, 2007.

²⁰ Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В. И. Карасик. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с. 6. Карасик В. И., Слышкин Г. Г. Базовые характеристики лингвокультурных концептов // Антология концептов. Том 1 / под. ред. В. И. Карасика [и др.]. – Волгоград: Парадигма, 2005. – С. 13-15.

²¹ Карасик В. И., Слышкин Г. Г. Базовые характеристики лингвокультурных концептов // Антология концептов. Том 1 / под. ред. В. И. Карасика [и др.]. – Волгоград: Парадигма, 2005. – С. 13-15.

²² См.: Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: ВостокЗапад, 2007.

²³ Пименова. М. В. Методология концептуальных исследований // Антология концептов. Т.1 / под ред. В. И. Карасика [и др.]. – Волгоград: Парадигма, 2005. – С. 15-19.

²⁴ Кубрякова Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. – № 1. – С.10.

Kognitivlikning dialektik jarayonini tadqiq etishda struktur semantikaning asosiy postulatlarini muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobning **“Til va axborot texnologiyalarining kognitiv birliklarini tadqiq etishning o‘ziga xosligi”** deb nomlangan birinchi paragrafida so‘z semantikasini tadqiq etishning zamonaviy yondashuvlari ko‘rib chiqilgan.

Lingvokulturologik yondashuv antropotsentrik va milliy o‘ziga xos yo‘nalganlik bilan tavsiflanadi. Kognitiv yondashuv tilni insonning boshqa kognitiv mexanizmlari tizimiga kiritishga intiladi. Lisoniy ma’nolarning nutqiy ma’nosiga (vaziyat va kontekst yordamida) mavzu haqidagi bilimlarimizning tizimli birliklar sifatida o‘z mazmuniga kirmaydigan kommunikativ-ahamiyatli komponentlari jalb qilinadi.

Ko‘plab so‘zlarning leksik ma’nosi murakkab tuzilishga ega bo‘lib, semantik yuklamalar yoki semalardan tashkil topadi. Ularning strukturasi ikkita asosiy elementni kiritish umumiy qabul qilingan: yadroviy sema va yadroviy sema atrofida iyerarxik tamoyil bo‘yicha joylashgan periferik elementlar.

Strukturaviy tilshunoslikda komponentlilik, eng kichik bo‘linmas birlik metodikasi qo‘llaniladi. Ma’noni semalarga ajratishda alohida qisqacha ta’riflarni tadqiq qilish imkoniyati paydo bo‘ladi, ulardan ta’rif tuziladi. Bu nazariya I.V.Arnoldning ilmiy-tadqiqot faoliyati tufayli dastlabki ishlanmalardan biri bo‘ldi²⁵.

Ma’no hosil bo‘lish jarayoni va qonuniyatlari hozirgi vaqtda kognitiv tilshunoslikning diqqat markazida bo‘lib, bu inson tomonidan amalga oshiriladigan kognitiv jarayonlarga tadqiqotchilik qiziqishi bilan bog‘liq.

Xususan, A.Mikolaychuk “so‘zning ma’nosi insonning kognitiv tajribasi bilan oldindan belgilangan”ligini ta’kidlaydi.

S.D.Katsnelson nazariyasi ham diqqatga sazovordir, u barcha tushunchalarni dixotomiya tamoyiliga ko‘ra ikki turga tasniflagan: formal va mazmuniy, ikkinchisi ostida u aynan tildan tashqari tushunchalarni tushunadi²⁶.

L.M.Vasilev ham xuddi shu nuqtayi nazarga amal qiladi, N.M.Janpeisova esa bizning e’tiborimizni bu ikki bilim turining o‘zaro ta’sir variantlariga qaratadi va fan aslida (asossiz) bu masalani chetlab o‘tgan deb hisoblaydi, chunki “lisoniy ma’noda yadroviy va potensial (ehtimoliy) komponentlarni farqlash”²⁷ qismida faqat fragmentar tadqiqotlar mavjud.

M.V.Nikitin boshqa ikkita tushunchani – intensional va implikatsionalni ajratdi.

A.Vejbitskayaning fikricha, “aytilayotgan narsaning mazmuni faqat kichik darajada “obyektiv” voqelikda mavjud narsadir <...> Til antropotsentrikdir: u inson uchun mo‘ljallangan va tashqi dunyo obyektlari va hodisalarining barcha lisoniy kategoriyalari insonga yo‘naltirilgan.

Dunyo manzarasiga ta’sir etuvchi yangi omillarning paydo bo‘lishi lisoniy manzarani ham sezilarli darajada o‘zgartiradi. Yu.D.Apresyan olam lisoniy

²⁵ Арнольд И. В. Основы научных исследований в лингвистике: Учеб. пособие. – М.: ВШ, 1991.

²⁶ Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. – Л., 1972. – С.131-132.

²⁷ Никитин М.В. Основания когнитивной семантики. Учебное пособие (гриф УМО) – СПб, Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2003.

manzarasining emotsional tashkil etuvchisiga e'tibor qaratadi va emotsiyalarni yorug'lik g'oyasi bilan bog'lashni maqsadga muvofiq deb topadi. Masalan, *yorug' (muhabbat, zavq, quvonch) va qorong'u (qo'rquv, dahshat)* his-tuyg'ular mavjud.

Tilshunoslikning konseptual apparati tizimida ushbu ilmiy kategoriya mazmunini ishlab chiqish bilan ko'plab olimlar shug'ullanganlar.

Masalan, N.D.Arutyunova, D.S.Lixachev va boshqa ko'plab olimlar konseptni fikrlash faoliyati jarayonida atrofdagi olam bilan bevosita tanishish ta'sirida shaxs ongida obraz shaklida paydo bo'ladigan tayanch fikrlash kategoriyasi sifatida ta'riflaganlar.

Rus tilidagi klassik konseptlar – Vatan, ona-Rus, muhabbat, jasorat, non, uy, taqdir, urush. O'zbek xalqida “dasturxon” konsepti hozirgi kunda xalqning mehmondo'stligini ko'rsatuvchi milliy ramz darajasiga ko'tarilgan.

“Axborot texnologiyalari terminologiyasini tabiiy til va axborot texnologiyalari birligi sifatida o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi paragrafda axborot texnologiyalari tilida tabiiy til birliklarining kognitiv tadqiqi sharhlangan. Tadqiqotimizning ushbu qismida madaniy axborotga kognitiv yondashuvning kognitiv dinamikasi modellashtirilishi tufayli verbal muloqotning axborot komponentiga e'tibor qaratishni istardik, bu esa nutq ma'nosini anglashning mantiqiy jarayonlarini psixologiya darajasida ko'rgazmali ravishda bilishga imkon beradi.

Boshqacha aytganda, madaniy resurs (yoki boshqa axborot resursi)ni idrok etishni bir-birini almashtiradigan operatsiyalardan iborat tizim sifatida qayta tiklash mumkin. Odatda 5 ta bosqich ajratiladi.

1. Axborot resursiga kirish huquqini olish.
2. Gipotezalarni ilgari surish va tekshirish orqali shaxs ongida axborot transformatsiyasi. Aslida bu bosqich mavjud bilimlar fonida obraz yaratish demakdir.
3. Axborotni tizimlashtirish.
4. Saqlash maqsadida axborot resurslarini kodlash.
5. Axborotni qayta tiklash.

O.Y.Baksanskiy, Y.N.Kucherlarning ta'kidlashicha, yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha bosqichlarda axborotning bir qismi ham o'chiriladi, uni boshqa ma'nodagi axborotga aylantirish darajasigacha buzib ko'rsatish jarayonlari ham bo'lishi mumkin²⁸.

Demak, axborotni idrok etuvchi shaxs ongida axborot resursi muallifining o'zligidan uzoq va ko'pincha dunyoning haqiqiy manzarasidan uzoq bo'lgan o'z obrazi shakllanadi.

Har qanday xalq madaniyati ijtimoiy jihatdan ma'qullanadigan va qoralanadigan, ammo mavjud bo'lgan standartlarga to'la.

Bu standartlar yangi axborotni qabul qilishda o'ziga xos filtrlar vazifasini bajaradi.

²⁸ Баксанский О.Е., Кучер Е.Н. Нейролингвистическое программирование как практическая область когнитивных наук // Вопросы философии, 2005. – № 1. – С. 84-85.

Axborotning ajralishi (filtrlanishi) ikki darajada sodir bo‘ladi, ulardan birinchisi individual bo‘lib, u insonning butun hayoti davomida shaxsiy hayot tajribasi va dunyo manzarasini bilish hisobiga shakllanadi.

Ikkinchi daraja – bu jamiyatda ma’lum kognitiv modellarning mavjudligi bo‘lib, ular ma’lumotlarning individual ko‘chishini kuzatib boradi va to‘ldiradi.

J.Lakoff va M.Jonson metafora konsepsiyasini ilgari surdilar, bu g‘oya ishlab chiquvchilarining fikriga ko‘ra, til doirasidan chiqadi va fikrlash faoliyati usuli sifatida tan olinishi kerak²⁹.

Ular tomonidan metaforalar 3 turga tasniflangan: struktural, ontologik va oriyentatsion metaforalar.

Klassik strukturaviy konseptual metaforalar: vaqt – pul; sport – dunyo.

L.T.Yeloyeva semantik-sintaktik yondashuvdan foydalanib, metaforalarni butunlay boshqacha tasniflagan: predikativ, atributiv, izohlovchi.

“Axborot texnologiyalarining kognitiv birliklarida madaniyat mazmunini aks ettirish xususiyatlari” deb nomlangan paragraf IT kognitiv birliklarida madaniyat kontentini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Zamonaviy falsafa “lingvistik burilish” kategoriyasi bilan keng shug‘ullanadi, bu madaniy-tarixiy jarayonlarning asosiy yo‘nalishlarini shakllantirishda tilning yetakchi rolini so‘zsiz tan olishni anglatadi, bu esa dunyoni bilishning gumanitar usullariga, gumanitar yo‘nalishdagi fikrlash faoliyati shakllariga katta qiziqish uyg‘otdi.

Madaniyatni o‘rganish va doktrinal kognitiv yondashuvni qo‘llash antropologik ma’noda rivojlanadi va ilmiy e’tibor markazini insonga o‘tkazishni nazarda tutadi. L.S.Vigotskiyning gipotezasi va madaniy genlar evolyutsiyasi haqidagi doktrinal taxmini tasdiqlovchi inson miyasi faoliyati haqidagi zamonaviy tasavvurlar asosiy tabiiy-ilmiy tayanch bo‘ldi.

Yangi fan doirasida inson miyasi holati va madaniy muhitning bog‘liqlik mexanizmini aniqlash maqsadida tadqiqotlar olib borilmoqda, shuningdek, olimlar madaniyatning miya biokimyoviy hodisalariga ta’siri qanday sodir bo‘lishini aniqlashga harakat qilmoqdalar. Bu g‘oya tarafdorlari: bioximiya nuqtayi nazaridan inson miyasining madaniy-kognitiv jarayonlarga bog‘liqlik mexanizmini qurish, shaxsning fiziologik holati va uning madaniy maydoni darajasi o‘rtasidagi farqni tenglashtirishga harakat qiladilar.

M.V.Falikman va M.Koul subyektiv nuqtayi nazarimizga ko‘ra, kognitiv antropologiya sohasiga neyrofiziologik uslubiy usullarni joriy etish miya faoliyati psixikaning holatiga, shu jumladan, uning madaniy tarkibiy qismiga bevosita bog‘liqligini anglatadi, degan xavotirda mutlaqo haqdirlar.

Taklif etilayotgan g‘oyaning ishlab chiqilishi (ilmiy konsepsiya haqida gap ketmayotganini ta’kidlab o‘tamiz) M.V.Falikmanning “tilshunoslik fani “madaniyatga xos” jarayonlarni o‘rganishni emas, balki “inson ruhiyati o‘zi mansub bo‘lgan madaniyat kontekstida qanday shakllanishini”, ya’ni kognitiv

²⁹ Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем / Под ред. и с предисловием А.Н. Баранова. – М., 2004.

jarayonlar madaniy kontekst ta'sirida qanday tashkil etilishini tadqiq qilishni o'z oldiga ustuvor vazifa qilib qo'yishi kerak"³⁰ degan fikriga qo'shilmaymiz.

Fikrimizcha, Y.Y.Rejabek tomonidan ilgari surilgan madaniyat nazariyasi qiziqish uyg'otadi, u o'z g'oyasini axborot metodologiyasining afzalliklaridan kelib chiqib rivojlantiradi. Muallifning fikricha, evolyutsion taraqqiyot davomida turli xalqlarning madaniy elementlarini jamlash imkoniyati paydo bo'ladi va madaniyat shakli tana tarkibiy qismidan ajralmaydi.

Til madaniy-axborot (verbal va noverbal) makonning zaruriy elementi hisoblanadi. Faqat tilgina xalqning madaniy maydonini shakllantirishga qodir³¹.

Shunday qilib, madaniy kontent murakkab ilmiy-ijtimoiy hodisalarga kiradi, chunki u hozirgi vaqtda jamiyat hayotida global raqamlashtirish kabi hodisa bilan murakkablashgan, ammo bu uning asosiy maqsadini – xalqlar madaniy hamjamiyatining shakllanishini o'zgartirmaydi.

Dissertatsiyaning **“Tilning kognitiv birliklari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimida tadqiqot obyekt sifatida”** deb nomlangan uchinchi bobida tilning kognitiv birliklari, formal yondashuvlar, so'zlarning gapga strukturalanishi bilan bog'liq ongdagi soha sifatida semantik modul, fonologik “modul” esa tovushlarning har qanday til va umuman inson tili qoidalari bilan ruxsat etilgan qoliplarga strukturalanishi bilan bog'liq. Tafakkurga bunday modulli qarash zamonaviy tilshunoslikning tilni o'rganishni faqat amaliylik nuqtayi nazaridan emas, balki tilning tarkibiy qismlari mutlaqo har xil va tashkiliy jihatdan qiyoslab bo'lmaydigan alohida subfanlarga bo'linishi bilan oqlanishi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

Bobning **“Tilning kognitiv birliklarini tilshunoslik va informatika kesimida o'rganish”** deb nomlangan birinchi faslida kategoriyalashtirish, noaniqlik va metafora kabi tushunchalarga e'tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, kognitiv psixologiya kategoriyani “yoki shunday, yoki umuman” versiyasida asosiy mezon sifatida baholamaydi.

Shaxs kategoriyalari ko'pincha yetarlicha aniq tavsifga ega bo'lmaydi, chunki ayrim elementlar yadroviy (markaziy), boshqalari esa, aksincha, beqaror-periferiy bo'lishi mumkin.

Metafora doktrinal ishlab chiqish obyekt sifatida alohida qiziqish uyg'otadi, chunki u fanning turli sohalarida tadqiqotlar uchun turtki beradigan universal vositadir. Y.Y.Derbeneva ta'kidlaganidek³², metaforizatsiya jarayonini tilning nominativ vositasi va bir vaqtning o'zida dunyo haqida fikrlash usuli sifatida ko'rib chiqish kerak.

N.N.Boldirevning fikriga ko'ra, u yoki bu til birligining ma'lum bir ma'nosi uning mazmunida bo'lib, birlamchi konseptualizatsiya va kategoriyalashtirish

³⁰ Фаликман М.В., Коул М. “Культурная революция” в когнитивной науке: от нейронной пластичности до генетических механизмов приобретения культурного опыта // Культурно-историческая психология. – 2014. – Т.10. – № 3. – С. 4–18.

³¹ Режабек Е.Я., Филатова А.А. Когнитивная культурология. – СПб.: Алетейя, 2010. – С.56.

³² Дебердеева Е.Е. Метафора в контексте лингвистических исследований / Журнал Вестник Таганрогского института имени А.П.Чехова, 2008. <https://cyberleninka.ru>.

hisobiga shakllanadi. Masalan, “olma” so‘zi asl ma’noga ega – madaniylashtirilgan yoki madaniy bo‘lmagan daraxtning ma’lum bir turining mevasi.

